

SO ‘ZLARNING EMOTSIONAL – EKSPRESSIV TURLARI

Matqosimova Mohira
ADCHTI, Nemis tili nazariyasi va
amaliyoti kafedrası o ‘qituvchisi
Abdullajonova Tursunoy
ADCHTI, Nemis tili ta’lim yo‘nalishi
2-kurs talabasi

Har bir so‘z va iboralar semantik strukturasi emotsional – ekspressiv komponentli bo‘lib, ular gapiruvchi va tinglovchilar tomonidan ma’lum bir tushunchalarni ijobiy yoki salbiy tushunishga yordam beradi. Emotsional – ekspressiv bularsiz so‘zlar (lug‘at qatlamidagi asosiy so‘zlar kiradi) neytral so‘zlar deyiladi.

Tilning lug‘at tarkibidagi so‘zlarni 3 guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin.

- 1) Neytral ma’noli so‘zlar.
- 2) Ijobiy ma’noli so‘zlar.
- 3) Negativ salbiy ma’noli so‘zlar.

Stilistik harakteristikaga ko‘ra leksik birliklarni klassifikatsiyalash ularni pragmatik ma’nosidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Masalan: og‘zaki nutqda ishlatiladigon leksik birliklar stilistik neytral yoki qo‘pol bo‘lishi mumkin. (**familiär**), ammo poetik so‘zlar aksincha badiiylashgan ijobiy ma’noga (**gehoben**) ega bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari bir hil leksik birliklar har hil stilistik bo‘yoqqa ega ham bo‘lishi mumkin. Masalan: rus tilida "Конь" so‘zi (*das Pferd*) bir tomondan poetik ma’noga ega bo‘lsa, (*Schimmel* ma’nosida) иккинчи tomondan ot sportidagi kasbiy so‘zni ifodalash mumkin. Nemischa *Weib* so‘zi poetik pragmatik ma’noga egadir. Shu bilan birga neytral ma’noda ham ishlatish mumkin. (*Ein altes Weib kommt*) pragmatik ma’noni ifodalovchi (ijobiy, neytral, negativ) ma’nolarga yana so‘zlarning kommunikativ vazni (*kommunikative Gewicht*) ham kirishi mumkin. Bu ma’noda ishlatilganda kommunikativ vazn yuzaga keladi. Masalan: *Hans macht die Arbeit* gapida "Hans" tinglovchi uchun aniq kim haqida so‘z yuritilayotgani "das Gegebene", *macht die Arbeit* bu tinglovchi uchun "das Neue". So‘z tartibi o‘zgargan gapning kommunikativ vazni o‘zgaradi. *Die Arbeit macht Hans* gapida "Die Arbeit", *das Gegebene* "Hans" esa "das Neue". Gaplarning kommunikativ bo‘linishi masalasi ilmiy adabiy tillarda turlicha talqin qilinadi. Tarjimada gaplarning kommunikativ ma’nosi pragmatik ma’nosini berishda asosiy masalalardan hisoblanadi.

Olmon va o‘zbek tili leksikasida ekspressiv (lot. "ekspressio" ma’nodor, tasvirli, ifodali ma’nolarini anglatadi) va emotsional (lot. "emovere" kishining his tuyg‘usi, kechinmasi, hissiyoti ma’nolarida qo‘llanadi.) rangdorlik bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlar ko‘p, masalan: quyidagi so‘zlar ta’sirli va ifodali bo‘yog‘iga nutqqa ko‘tarinki, tantanali va ulug‘vor ruh kiritadi: navqiron (yoshlik), istiqbol (egallari), mag‘rur (jaranglamoq), muqaddas (burch). Tilda o‘z leksik ma’nosi bilan his tuyg‘u, kechinma va hayajon ifodalovchi so‘zlar ham bor: sevinch, quvonch, tabassum, dahshat, hiylagar kabi. Ba’zi ko‘p ma’noli so‘zlar to‘g‘ri ma’nosida emotsional – ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lmaydi, lekin ko‘chgan ma’nolarida emotsional – ekspressivlik yaqqol seziladi. Masalan: gumbaz so‘zining qubba, ravoq ma’nolarida emotsional bo‘yoq yo‘q, lekin ko‘chgan ma’noda qo‘pol, beso‘naqay, semiz odamni ifodalaydi. Xuddi shuningdek, mag‘zava so‘zi ham ko‘chgan ma’nosida (mag‘zava mahsum) mujmal, lanj, sustkash odamni anglatadi. Ba’zi holatlarda sinonim so‘zlar bir – biridan emotsional – ekspressiv bo‘yog‘ining kamroq yoki yaqqol sezilib turishi bilan farqlanadi: yuz, chehra, jamol, oraz, bet, aft, bashara, turq kabi sinonim so‘zlarning keyingi uchtasi o‘zining emotsional – ekspressiv rangiga ko‘ra oldingilardan ajralib turadi: Aft, bashara, turq so‘zlarida salbiy ottenka yaqqol seziladi. Huddi shuningdek, bo‘shang,

lapashang, noshud, landovur, so‘tak sinonim so‘zlari chaqqon “epchil”ning aksi ma’nosi bilan birlashsa – da, bulardan landovur, so‘tak so‘zlarida salbiy ottenka kuchlidir. So‘zlarning emotsional – ekspressivlik ma’no hususiyati kontekstda reallashadi. Masalan, ko‘pik, nok so‘zlari kontekstda salbiy baho ma’nosini olishi mumkin. So‘z bir predmet yoki voqeaning nomini atashdan tashqari, jirkanish va manmanlik, mensimaslik, mashara, nafrat, g‘azab, kinoya hamda hurmat erkalash, ko‘tarinkilik, ulug‘vorlik singari emotsional – ekspressiv ma’nolarni ham ifodalaydi. Shunga ko‘ra so‘zlar ijobiy ma’no ottenkasiga ega bo‘lgan so‘zlar va salbiy ma’no ottenkasiga ega bo‘lgan so‘zlar deb ikkiga ajratiladi. Ijobiy ma’no ottenkasiga ega bo‘lgan so‘zlar qatoriga quyidagi so‘zlar kiradi:

a) **erkalash - suyish va hushmuomalalikni bildiruvchi so‘zlar.** Bunday so‘zlarning ko‘pchiligi erkalash, kichraytirish affikslari yordamida yasaladi: toychoq, qo‘zichoq, qizaloq, bo‘taloq, do‘mboq, kenjatoy, bolatoy, opajon, bolagina, aylanay, o‘rgilay, girgittan bo‘lay va hokazo;

b) **tantanali, ritorik hamda poetik so‘zlar.** Bunday so‘zlar nutqqa dabdabali, ko‘tarinki ruh kiritadi. Kuchli ifoda vositasi hisoblangan bunday so‘zlarning ko‘pchiligini arhaik so‘zlar tashkil qiladi. Bu turdagi so‘zlarga og‘zaki ijodiyot – folklorda keng qo‘llanuvchi xalq poetik so‘zlarini ham kiritish mumkin. Bunday so‘zlar adabiy tildagi so‘zlardan o‘zining og‘zaki – poetik bo‘yoq va doston qo‘shiqlariga hos hususiyati bilan ajralib turadi. Masalan: Alp (pahlavon), lopchi (lofchi), sinchi (otni yaxshi biluvchi), alqor (tog‘qo‘yi), havar (to‘g‘ri, tekis yo‘l), bedov (chopqir ot), bedov suvor (chavandoz), ko‘kalam (ko‘kalamzor), kelbatli (qaddi – qomati kelishgan), halolho‘r (to‘g‘ri, vijdonli). Salbiy baho ottenkasiga ega bo‘lgan so‘zlar qatoriga quyidagilar kiradi:

a) **jirkanish va mensimaslikni ifoda qiluvchi so‘zlar:** oyimcha, oyimchahon, oyimtilla, baloxo‘r, pashshaxo‘rda, kerilmajon, mazaxo‘rak, yutoqmoq, so‘tak, soyaparvar, homkalla o‘limtik, kabi;

b) **qarg‘ish so‘kish va haqorat ma’nosini ifoda qiladigan so‘zlar:** zumrasha, humpar, tirrancha, lanati, gazanda, simyon, bachchag‘ar, oq padar, jinnivachcha juvonmarg, go‘rso‘xta, baraka topmagur, qoqboqsh, kuymagur...

v) **xalq tilidagi hazil so‘z va iboralar :** ahmoqqa to‘qmoq (kishining muskul kuchini o‘lchaydigan asbob), oyog‘ini to‘rtta qilib qo‘ymoq (uylantirish ma’nosida),

g) **salbiy emotsional bo‘yoqqa ega bo‘lgan publitsistik leksika:** Bunday so‘z va iboralar publitsistikada dushman va yod oqimlarni fosh etishda keng qo‘llanadi. Masalan: qora guruh, sariq iblis, irqchilar, okean ortidagilar, banditlar, bosqinchilar, sohtalashtiruvchilar, yo‘lchilar, shovinistlar, imperialistlar, urush olovini yoquvchilar, ma‘rifat dushmanlari kabi.

Emotsional – ekspressiv leksikadan foydalanish tekstning umumiy stilistik maqsad va yo‘nalishi bilan bog‘liq. Emotsional hususiyatga ega bo‘lgan so‘zlar badiiy – publitsistik asarlarda hamda so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi. Biroq dag‘al so‘zlar (vulgarizmlar) va haqorat so‘zlardan foydalanishda ma‘lum odob chegarasida turish zarur. Qo‘pol vulgar, argo so‘zlarni hatto asarda ishtirok etuvchi shaxslarning nutqiy karakteristikasini berish maqsadida ishlatish ham naturalizmga olib keladi.

Adabiyotlar royxati

1. Riesel E. Schendels E. Deutsche Stilistik . M., 1975. -315 S.
2. Саломов Ф. Таржима асослари. Т., 1983. - 315 б.
3. Солодухо Э. М. Интернациональные иноязычные выражения. Каз., 1982.
4. Солодухо Э. М. Вопросы сопоставительного изучения заимствованной фразеологии. Гл., 1. Каз., 1982. -187 с.
5. Stepanova M.D., Cernishova I. I. Leksikologie der deutschen Gegenwartssprache. M., 1975. 315 S.